ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(3)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 414 sahifa,
13-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Axborotlashgan jamiyatda xalq o'yinlari orqali shaxsni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari 10
Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish sharoitida talabaning axborot xavfsizligi kompetensiyasi: tushunchaning chegaralari va tarkibi 16
Mustafoyev Shahzod Mamanazar o'g'li

Navoiy viloyati ziyoratgohlari tarixi va ularning aholi hayotida tutgan o'rni 21
Nazarova Nozima Narzulloyevna

Fransuz tilidagi predloglar va o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalarining qiyosiy tahlili 26
Ro'zimova Yulduz Farhodovna

Umumta'lim maktab direktorlari emotsional intellektining boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati 30
Rustamova Barno Abduxalilovna

Kikbokschilarda motivatsion omillar va musobaqa faoliyati samaradorligini takomillashtirish metodikasi: nazariy-tahliliy asoslash 34
Mamaraximov Azim Karakulovich

Pedagogik diagnostikaning umumiy metodlari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati 39
Daminova Shoxista Farxodovna

Dual ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari 45
Oybekova Shukrona Oybek qizi

O'qish savodxonligini rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi individual ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish 51
Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi asosida talabalarda kartografik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 56
Kazakbayeva Muhabbat Turabayevna

Brayl yozuvi ko'zi ojiz shaxslarning inklyuziv imkoniyatlarini ta'minlashning muhim vositasi sifatida 62
Panjiyev Shokir Zokir o'g'li

Дидактический потенциал подкастов в обучении русскому языку студентов 67
Ибрагимова Нилуфар Туйчиевна

Maxsus ta'lim tizimida differensiallashtirilgan va individuallashtirilgan o'qitishning metodik asoslari 72
Karimova Nilufar Boltaboyevna

Xorijiy til o'qituvchilarida kasbiy so'nish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari 78
Matchanova Dilorom Karimovna

Raqamli ta'lim ekotizimi asosida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari 83
Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirish: pedagogik model va zamonaviy baholash metodikasi 87
Po'latjonov Shoxzod Avazjon o'g'li

Buyrak hujayrali saratonini erta aniqlashda ultratovush tekshiruvining diagnostik imkoniyatlari 92
Saydamatov Hayitboy Ulug'bek o'g'li

Проблемы и перспективы подгоготовки специалистов сферы искусств и культуры в ситстеме высшего образования 96
Кошелева Антонина Фёдоровна

Sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida ta'limning insonparvarlik paradigmasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 99
Yaqubova Dinora Bahodirovna

Behbudiyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari va o'qitish metodlari 104
Islomova Lola Abdig'ani qizi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 110
Djabbarova Feruza Azamovna

The Role of Phonation Energy Efficiency in Sound Changes 114
Baxramova Shaxnoza Erkinovna

Mustaqillik yillarida ichki migratsiyaning shakllanish jarayonlari 119
Mo'minov Ziyovuddin Bakirjon o'g'li

Raqamli ta'lim davrida bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil ta'lim trayektoriyasini loyihalash: "pedagogik mahorat" fani misolida 123
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

Современные подходы к управлению образовательным учреждением: теоретические основы и особенности реализации 128
Джуманиязова Дильбар Азатовна

Ko'zi ojiz o'quvchilarga funksiyalar grafiklarini o'rgatishda ko'p sezgili ta'lim yondashuvlaridan foydalanish 132
Abdullayev Umid Amrilloyevich

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari 139
G'oyibnazarov Rahmatilla

Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishda maxsus pedagog faoliyati 144
Hurriyat Yoqubova

Modelling the Semantic Field of Ma'naviyat in a Specialised Parallel Corpus: Theoretical and Methodological Foundations of Cross-Genre Discourse Analysis 149
Mukhlisa Chorieva Jumamurodovna

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy axborot-kutubxona xizmatlari samaradorligini oshirish metodikasi 154
G'oyibova Sayyora

Talabalarda psixologik rezilientlikni takomillashtirishning emotsional-kognitiv determinantlari 160
Hayitova Oydinniso Aliyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida samarali faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish 164
Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi

Fizika ta'limida muammoli masalalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari 168
Ostonova Malika Uktam qizi

Texnika oliy ta'lim muassasalarida matematika fanlarini o'qitish metodikasini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish 173
Vahobov Mehroj Alisher o'g'li

Tarbiya, ta'lim, rivojlanish va shakllanish kategoriyalarining mazmun-mohiyati va o'zaro munosabati 178
Xodjayeva Munisa Utkur qizi

Birlamchi sog'liqni saqlash tizimida bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalari texnologiyasini shakllantirish 183
Abduvaxobova Nozima Raxmanovna

Uchburchak o'rta chizig'ining xossasini o'qitish va undan kelib chiqadigan dastlabki xulosalar 189
E. E. Jumayev, O'. X. Aytuvganov

Maktabgacha ta'limda musiqmashg'ulotlarini raqamli ta'lim resurslari asosida tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari 195
G'ulomova Muslimaxon Ahmadillo qizi

Teaching Medical Terminology Through Data-Driven Learning: A Corpus-Informed Model for English for Medical Purposes 199
Isomiddinova Diyora Qutbiddin qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Jismoniy tarbiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarlik tizimida gimnastika mashqlarini qo'llash metodikasining o'ziga xos xususiyatlari 209
Karimov Duysenbay Djienbaevitch

Filolog talabalarga ingliz va malay tillarini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari 213
Yuldashev Azim Abdurahmonovich

Qozoq, rus, o'zbek va ingliz tillarida sotsiolingvistik terminlarning tarjimasi: terminologik ekvivalentlikning qiyosiy tahlili 218
Yuldasheva Mahzuna Omonullayevna

Psixolog talabalarda empatiya, kommunikativ kompetentlik va refleksiv qobiliyatlarning konsultativ salohiyat rivojlanishidagi o'zaro bog'liqligi 224
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning individual kognitiv moslashuvchanligini kreativ didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish metodlari 230
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Mirzakarimova Anoraxon Ashurali qizi

Raqamli ta'lim muhitida 7–9-sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish 236
Paizbekov Timurlan Kurbanbayevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsga ijobiy munosabatni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari 240
Tursunbayeva Yulduz

Искусственный интеллект и цифровая трансформация в преподавании русского языка 246
Абдусаломова Мохичехра Эргашевна

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi nutq madaniyati va pedagogik muloqot odobi 250
M. S. Ibragimova

Yangi zamon tarbiyachisining pedagogik imidji va uning ahamiyati 256
Dosova Bakposhsha Odamboy qizi

Kognitiv faoliyatning nazariy-pedagogik mohiyati va ta'lim jarayonidagi ahamiyati 259
Xujobekov Bobur Xushboq o'g'li

Maktabgacha ta'limda innovatsion boshqaruvni joriy etishning texnologik modeli: dual ta'lim yondashuvi asosida 263
G'aniyeva Aziza Zayniddinovna

Shaxs addiktiv xulq-atvorining psixologik determinantlari va o'ziga xos xususiyatlari: nazariy-tahliliy yondashuv 268
Mamajonova Shohista Kamoldinovna

Filologik ta'lim samaradorligini oshirishda kognitiv va kommunikativ strategiyalar integratsiyasining didaktik imkoniyatlari 275
Pardayeva Umida Norbayevna

Nutq kamchiliklari mavjud o'quvchilarni inklyuziv sinfda differensial ta'lim texnologiyalari orqali rivojlantiruvchi metodik tizimini takomillashtirish 281
Shukurova Dilbar Shukrullo qizi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari va mavjud muammolari 290
Sharipova Saboxon Abdillajonovna

Языковая репрезентация национального характера в русской и узбекской прозе 295
Рахмонова Рухсора Дилшодовна, Обидова Фарангиз Акмаловна

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirishda "ingliz tilini o'qitish metodikasi" fanining funksional ahamiyati 300
Tuxtayeva Nilufar Achilovna

O'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish: xorijiy tajriba va uning tahlili 304
Amanyo'lov Sindor Faxriddin o'g'li

Muhammad Sodiq Qoshg'ariy asarlari asosida talabalarda axloqiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mexanizmlar 314
Muxamedxodjayeva Mavjuda Axbarovna

O‘quvchilarga ekologik ta’lim berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi 318
Abdupattayev Hasanboy Abdurahmonovich

8–9-sinf o‘quvchilariga ingliz tilidagi fe’lli iboralarni o‘rgatishda interferensiyani bartaraf etishning metodik mexanizmlari 321
Majidova Kamola Majid qizi

Umumta’lim maktablarida fizika ta’limi samaradorligini oshirishda VR/AR texnologiyalariga asoslangan immersiv o‘qitish metodikasini takomillashtirish 326
Soyibnazarov Abbosjon Ikromjonovich

Innovatsion ta’lim texnologiyalari jarayonida talabalar o‘quv-bilish faolligini oshirish metodikasi 331
Ruziyev Shuxrat Islamovich

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni boshqarishni takomillashtirish 335
Gulxayo Samandarova Abdukarim qizi

Ta’lim muassasalari menejerlarida boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari 344
Abdug‘aniyev Otabek Abduhamidovich

Развитие творческого и критического мышления студентов-филологов в процессе изучения художественного текста (на материале повести Ф. Кафки “Превращение”) 349
Урунова Фируза Хайдаровна

Theoretical and Methodological Foundations of Developing English Listening Comprehension Skills Among Grades 5–6 Students in Karakalpakstan 355
Azirbayeva Alima Makhsetbayevna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish 360
Fazilov Shuxrat Shavkatovich

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun bo‘lajak tarbiyachilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyasi bo‘yicha tayyorgarligini oshirish 364
Umataliyev Zafar Asqaraliyevich

Oliy ta’lim talabalarining loyihaviy kompetensiyalarini sun’iy intellekt vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 369
Kunisova Gulmira Urazxonovna

Dars jarayonida axborot ta’lim resurslarini qo‘llash metodikasi: didaktik maqsad, dars bosqichi va resurs turini uyg‘unlashtirish modeli 373
Alijonova Shahnozaxon Kozimjon qizi, Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna

Yuqori sinf o‘quvchilarida jismoniy madaniyat vositalari yordamida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari 378
G. A.Tulepova

Fikrlash sifati mezonlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 382
Inomjonova Barnoxon Tel’manjon qizi

Integratsiyalashgan lingvistik kontekst asosida talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 387
Ayatov Raximberdi Ibragimovich

Maxsus pedagogika fanlarida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash usullari hamda texnologiyalari 393
Maqsudova Nodira Alijonovna

Major Approaches to Speech Acts Theory and Politeness Strategies in Contemporary Linguistics 400
Nurdinova Muhabbat Rahmatullayevna, Roziyeva Gulruh Khayrullayevna

Generativ sun’iy intellekt vositalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning nazariy asoslari 407
Qulmuminov O‘rolboy Safar o‘g‘li

OLIY TA'LIM TALABALARINING LOYIHAVIY KOMPETENSIYALARINI SUN'IY INTELLEKT VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Kunisova Gulmira Urazxonovna
Buxoro xalqaro universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligida
pedagogika fanlari yo'nalishi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim talabalarining loyihaviy kompetensiyalarini sun'iy intellekt vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Loyihaviy kompetensiyaning mazmuni, uni shakllantirishda loyihaviy ta'limning o'rni hamda generativ sun'iy intellektdan foydalanishning didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada sun'iy intellektni loyihaviy faoliyatga integratsiyalashning nazariy modeli, pedagogik shartlari va baholashga oid tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, texnologiyadan foydalanishda axborot ishonchliligi, akademik halollik va talabalarning mustaqil fikrlashini ta'minlash masalalari asoslandi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, sun'iy intellekt, loyihaviy kompetensiya, loyihaviy ta'lim, generativ sun'iy intellekt, tanqidiy fikrlash, raqamli pedagogika, akademik halollik.

Abstract: This article analyzes the pedagogical possibilities of developing project-based competencies among higher education students through the use of artificial intelligence. It examines the essence of project-based competence, the role of project-based learning in its development, and the didactic potential of utilizing generative artificial intelligence. The study employed methods such as the analysis, comparison, and generalization of existing scientific literature, as well as pedagogical modeling. As a result, a theoretical model for integrating artificial intelligence into project-based activities, along with pedagogical conditions and recommendations for assessment, was developed. Furthermore, the study addresses issues regarding information reliability, academic integrity, and the fostering of independent student thinking in the context of using this technology.

Key words: higher education, artificial intelligence, project-based competence, project-based learning, generative artificial intelligence, critical thinking, digital pedagogy, academic integrity.

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности формирования проектных компетенций у студентов высших учебных заведений с использованием искусственного интеллекта. Рассматриваются сущность проектной компетенции, роль проектного обучения в ее развитии, а также дидактический потенциал применения генеративного искусственного интеллекта. В ходе исследования использовались такие методы, как анализ, сравнение и обобщение научной литературы, а также педагогическое моделирование. В результате была разработана теоретическая модель интеграции искусственного интеллекта в проектную деятельность, определены педагогические условия и предложены рекомендации по оцениванию. Кроме того, в работе затрагиваются вопросы достоверности информации, академической добросовестности и развития самостоятельного мышления студентов в контексте использования данной технологии.

Ключевые слова: высшее образование, искусственный интеллект, проектная компетенция, проектное обучение, генеративный искусственный интеллект, критическое мышление, цифровая педагогика, академическая добросовестность.

KIRISH

Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish va ularni kasbiy muammolarni hal etishga tayyorlashdan iborat. Ushbu maqsadlarga erishishda loyihaviy ta'lim alohida ahamiyatga ega. Chunki loyiha faoliyati talabadan muammoni aniqlash, maqsadni belgilash, axborot to'plash, yechim ishlab chiqish va olingan natijalarni asoslashni talab qiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi loyihaviy faoliyatni tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Generativ sun'iy intellekt talabalarga g'oyalarni shakllantirish, murakkab tushunchalarni izohlash, loyiha rejasini ishlab chiqish va muqobil yechimlarni taqqoslashda ko'maklashishi mumkin. Biroq ushbu texnologiyalarning ta'limiy samarasi ularni maqsadga muvofiq qo'llash va natijalarni tanqidiy baholashga bog'liq.

Mazkur muammolardan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim talabalarining loyihaviy kompetensiyalarini sun'iy intellekt vositasida rivojlantirish imkoniyatlarini mavjud ilmiy manbalar asosida o'rganish va pedagogik jihatdan asoslangan modelni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyihaviy kompetensiya talabaning muayyan muammoni mustaqil aniqlash, loyiha faoliyatini rejalashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, jamoa bilan hamkorlik qilish va amaliy natijaga erishish qobiliyatini ifodalaydi.

Guo, Saab, Post va Admiraal tomonidan oliy ta'limda loyihaviy ta'limga oid 76 ta empirik tadqiqot tahlil qilingan. Mualliflar o'quv natijalarini kognitiv, affektiv, xulq-atvor va yaratilgan mahsulot ko'rsatkichlari orqali o'rganish zarurligini ko'rsatganlar [1, 2–4]. Ushbu yondashuv loyihaviy kompetensiyani faqat tayyor mahsulot bilan emas, balki uni yaratish jarayonida namoyon bo'ladigan bilim va ko'nikmalar bilan ham baholash lozimligini anglatadi.

Zawacki-Richter va hammualliflarning oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishga bag'ishlangan tizimli tadqiqotida 2007–2018-yillarda chop etilgan 146 ta ilmiy maqola tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellektning baholash, moslashtirilgan ta'lim, prognozlash va intellektual o'qitish tizimlaridagi qo'llanilish yo'nalishlari aniqlangan. Mualliflar pedagogik nazariya, axloqiy muammolar va o'qituvchilarning ishtirokiga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ham ta'kidlaganlar [2, 1–4].

Kasneci va hammualliflar generativ sun'iy intellektning ta'limda individual yordam ko'rsatish, o'quv materiallarini ishlab chiqish va o'quvchilar bilan muloqotni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini muhokama qilganlar. Shu bilan birga, noto'g'ri ma'lumotlar, algoritmik tarafkashlik va inson nazoratiga bo'lgan ehtiyojni ta'lim jarayonida hisobga olish lozimligini asoslaganlar [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullariga asoslandi. Tadqiqot manbalari sifatida oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish, loyihaviy ta'lim natijalari va generativ sun'iy intellektning ta'limiy imkoniyatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar tanlandi.

Guo va hammualliflarning tadqiqoti loyihaviy ta'lim natijalarini baholash masalalarini o'rganish uchun asos bo'ldi [1, 2–4].

Zawacki-Richter va hammualliflarning tizimli sharhidan oliy ta'limda sun'iy intellekt qo'llanilishining asosiy yo'nalishlarini aniqlashda foydalanildi [2, 1–4].

Kasneci va hammualliflarning maqolasi generativ sun'iy intellektning pedagogik imkoniyatlari va undan samarali hamda mas'uliyatli foydalanish shartlarini tahlil qilishga xizmat qildi [3].

Tahlil jarayonida loyihaviy kompetensiyaning muammoni aniqlash, rejalashtirish, axborot bilan ishlash, yechim ishlab chiqish, hamkorlik, natijalarni baholash va refleksiya bilan bog'liq jihatlari o'rganildi. Ushbu jihatlar asosida sun'iy intellekt vositalarini loyihaviy faoliyatning turli bosqichlariga integratsiyalash imkoniyatlari umumlashtirildi.

Tadqiqot doirasida nazariy tahlil va pedagogik modellashtirishga ustuvor ahamiyat qaratildi. Natijada loyihaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik model taklif etildi. Mazkur model kelgusida empirik tadqiqotlar orqali uning amaliy samaradorligini baholash va takomillashtirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalar tahlili loyihaviy kompetensiya murakkab va ko'p tarkibli ta'limiy natija ekanini ko'rsatadi. U talabaning nazariy bilimlari bilan bir qatorda muammolarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash va yaratilgan mahsulot sifatini baholash qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Guo va hammualliflar loyihaviy ta'lim natijalarini o'rganishda turli baholash vositalaridan foydalanish hamda yakuniy mahsulotni tahlil qilish muhimligini qayd etganlar [1, 2–4].

Sun'iy intellekt vositalari ushbu kompetensiyaning shakllanishiga bir necha yo'nalishda yordam berishi mumkin. Dastlabki bosqichda ular muammoli vaziyatni tahlil qilish, tadqiqot savollarini shakllantirish va turli g'oyalarni taqqoslashda qo'llanadi. Masalan, pedagogika yo'nalishi talabasi mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan loyiha ustida ishlaganda sun'iy intellektdan muammoning mumkin bo'lgan sabablarini aniqlash va dastlabki yechimlarni ishlab chiqishda foydalanishi mumkin. Ushbu yechimlarni ilmiy manbalar va amaliy dalillar yordamida asoslash loyiha sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Loyihani rejalashtirish bosqichida sun'iy intellekt maqsad va vazifalarni aniqlashtirish, ish ketma-ketligini belgilash, muddatlarni rejalashtirish hamda loyiha jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Talaba taklif etilgan rejani o'zining ta'limiy vazifalari, mavjud resurslari va loyiha sharoitlariga moslashtirish orqali rejalashtirish hamda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv texnologiyadan maqsadli foydalanish bilan birga talabaning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Axborot bilan ishlash jarayonida sun'iy intellekt murakkab matnlarni izohlash, ma'lumotlarni umumlashtirish va muqobil qarashlarni aniqlashda samarali yordamchi vosita bo'lishi mumkin. Generativ tizimlardan foydalanishda ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli talaba sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ishonchli manbalar bilan taqqoslashi, bibliografik ma'lumotlarni tekshirishi va xulosalarni mustaqil asoslash orqali axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishi mumkin. Kasneci va hammualliflar ham ta'limda katta til modellaridan foydalanishda faktlarni tekshirish va tanqidiy fikrlashning ahamiyatini ta'kidlaydilar [3].

Sun'iy intellekt ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda ham keng imkoniyatlarga ega. Talabalar undan bir muammoning bir nechta yechimini ishlab chiqish, dastlabki prototiplarni takomillashtirish va takliflarning afzalliklarini taqqoslash uchun foydalanishlari mumkin. Bunda pedagogik vazifa talabaning mustaqil tanlovini, qarorlarining mantiqiy asoslarini va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tahlil asosida sun'iy intellekt integratsiyalashgan loyihaviy ta'limning nazariy modeli taklif etildi. Model muammoni aniqlash va maqsadni belgilash, dastlabki izlanishlarni olib borish, axborotni tekshirish, loyiha faoliyatini rejalashtirish, mahsulotni ishlab chiqish, natijalarni himoya qilish va refleksiv baholash bosqichlarini qamrab oladi. Har bir bosqichda sun'iy intellekt yordamchi vosita sifatida ishtirok etib, talabaning mustaqil qaror qabul qilishi va loyiha natijalari uchun mas'uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Modelni amalga oshirishda o'qituvchi rahbarligi, real muammolarga asoslangan topshiriqlar, aniq baholash mezonlari va akademik halollik talablariga rioya qilish muhim hisoblanadi. Talabaning faoliyatini baholashda tayyor mahsulotning sifati bilan bir qatorda uning individual hissasi, axborot manbalarini tanlash usullari, mustaqil qarorlari va o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini hisobga olish kompleks baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlil natijalari sun'iy intellektning loyihaviy ta'limdagi imkoniyatlari pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan sharoitda yanada samarali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Texnologiya yordamida tayyorlangan sifatli loyiha yoki taqdimot talabaning amaliy faoliyatini baholash uchun muhim vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, baholash jarayonida talabaning loyiha mazmunini tushunishi, foydalanilgan ma'lumotlarni izohlashi va tanlangan yechimni himoya qila olishini hisobga olish uning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini har tomonlama baholashga xizmat qiladi.

Loyihaviy ta'lim natijalariga oid tadqiqotlarda o'quv jarayoni va yakuniy mahsulotni turli vositalar yordamida baholash zarurligi ko'rsatilgan [1, 2–4]. Ushbu yondashuv sun'iy intellektdan foydalanilgan loyihalarda ham qo'llanishi mumkin. Jumladan, loyiha kundaligi, oraliq topshiriqlar, og'zaki himoya va individual refleksiya talabaning shaxsiy hissasi va erishgan yutuqlarini aniqlashga yordam beradi.

Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha tizimli sharhda pedagogik yondashuv va axloqiy masalalarning ahamiyati ta'kidlangan [2, 2–4]. Bu holat o'qituvchining pedagogik rahbarlik rolini mustahkamlash, talabalarni texnologiyadan ongli va samarali foydalanishga o'rgatish hamda ta'limiy natijalarni ishonchli baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Generativ sun'iy intellektdan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot ishonchliligini ta'minlash va akademik halollikka rioya etish muhim ahamiyatga ega. UNESCOning Guidance for Generative AI in Education and Research qo'llanmasida ta'limda generativ sun'iy intellektdan foydalanishga inson manfaatlariga yo'naltirilgan, xavfsiz va mas'uliyatli yondashuv zarurligi ko'rsatilgan [4]. Shu sababli ta'lim muassasalarida talabalar uchun sun'iy intellektdan foydalanish qoidalarini belgilash va ushbu qoidalarni baholash jarayoni bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotda taklif etilgan nazariy model kelgusida amaliy tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun asos yaratadi. Keyingi tadqiqotlarda tajriba va nazorat guruhlarini taqqoslash, loyihaviy kompetensiyaning dastlabki va yakuniy darajalarini aniqlash hamda loyiha mahsulotlarini yagona mezonlar asosida baholash orqali modelning samaradorligini empirik jihatdan o'rganish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim talabalarining loyihaviy kompetensiyalarini sun'iy intellekt vositasida rivojlantirish zamonaviy ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ilmiy manbalar tahlili ushbu texnologiyalardan g'oyalarni shakllantirish, loyiha faoliyatini rejalashtirish, axborotni tahlil qilish va muqobil yechimlarni ishlab chiqishda foydalanishning keng imkoniyatlarini ko'rsatadi. Sun'iy intellektning pedagogik ahamiyati talabalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqot doirasida loyihaviy ta'limni sun'iy intellekt bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan nazariy model ishlab chiqildi. Modelning asosiy shartlari real muammolarga asoslangan topshiriqlar, o'qituvchi rahbarligi, axborotning ishonchliligini ta'minlash, akademik halollik tamoyillariga rioya qilish va loyihaviy faoliyatni kompleks baholashdan iborat. Mazkur yondashuv talabalarning loyihaviy faoliyatini izchil tashkil etish hamda ularning kasbiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt talabalarning loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yordamchi pedagogik vosita sifatida qaralishi mumkin. Taklif etilgan nazariy model kelgusida tajriba-sinov tadqiqotlarini tashkil etish, uning amaliy samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida baholash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guo, P., Saab, N., Post, L. S., & Admiraal, W. "A Review of Project-Based Learning in Higher Education: Student Outcomes and Measures." International Journal of Educational Research, 102 (2020), 101586, 1–12-betlar.
2. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. "Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education – Where Are the Educators?" International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16 (2019), 39-maqola, 1–27-betlar.
3. Kasneci, E., et al. "ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education." Learning and Individual Differences, 103 (2023), 102274.
4. Miao, F., & Holmes, W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(3)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.